



## TURKEY AND IRAN'S POLICY IN SYRIA DURING THE SYRIAN CIVIL WAR

**Habibulloh Yakubovich Azimov**

Associate Professor (Acting) of the Department of International Relations  
Tashkent State University of Oriental Studies  
Doctor of Philosophy (PhD) in Political Science

**Mokhichehra Sobirova**

Master's student  
Tashkent State University of Oriental Studies  
Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Syrian civil war; Turkish foreign policy; Iranian foreign policy; Shiite Crescent; "Euphrates Shield," "Olive Branch," and "Peace Spring" operations; regional geopolitical competition.

**Received:** 26.01.26

**Accepted:** 27.01.26

**Published:** 28.01.26

**Abstract:** This article analyzes the main factors and dynamics of regional competition between Turkey and Iran in the context of the Syrian civil war. The study examines the foreign policies pursued by both states toward the Syrian crisis using a comparative approach. Alongside the ideological dimensions of Turkish and Iranian policies, their realpolitik and geopolitical interests are also explored. The role of the Syrian conflict in the regional balance of power is analyzed, and the security and political consequences of this competition are assessed. The findings of the study contribute to understanding the prospective directions of Turkey–Iran relations in the Middle East.

## SURIYADA FUQAROLAR URUSHI DAVRIDA TURKIYA VA ERONING SURIYA SIYOSATI

**Habibulloxon Yakubovich Azimov**

Xalqaro munosabatlar kafedrası dotsenti v.b.,  
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

**Moxichehra Sobirova**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit soʻzlar:** Suriya fuqarolar urushi; Turkiya tashqi siyosati; Eron tashqi siyosati; shia hiloli; “Furot qalqoni”, “Zaytun novdasi”, “Tinchlik bulogʻi” operatsiyalari; mintaqaviy geosiyosiy raqobat.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Suriya fuqarolar urushi sharoitida Turkiya va Eron oʻrtasidagi mintaqaviy raqobatning asosiy omillari va dinamikasi tahlil qilinadi. Tadqiqot har ikki davlatning Suriya inqiroziga nisbatan olib borgan tashqi siyosatini qiyosiy yondashuv asosida oʻrganadi. Maqolada Turkiya va Eron siyosatining mafkuraviy jihatlar bilan bir qatorda realpolitik va geosiyosiy manfaatlari yoritiladi. Suriya mojarosining mintaqaviy kuchlar muvozanatidagi oʻrni tahlil qilinib, raqobatning xavfsizlik va siyosiy oqibatlari baholanadi. Tadqiqot natijalari Turkiya–Eron munosabatlarining Yaqin Sharqdagi istiqboldagi yoʻnalishlarini anglashga xizmat qiladi.

## ПОЛИТИКА ТУРЦИИ И ИРАНА В СИРИИ В ПЕРИОД ГРАЖДАНСКОЙ ВОЙНЫ В СИРИИ

**Хабибуллох Якубович Азимов**

*Доктор философии (PhD) по политическим наукам*

*и.о. доцента кафедры международных отношений*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

**Мохичехра Собирова**

*Магистрант*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

## О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** гражданская война в Сирии; внешняя политика Турции; внешняя политика Ирана; шиитский полумесяц; операции «Щит Евфрата», «Оливковая ветвь», «Источник мира»; региональное геополитическое соперничество.

**Аннотация:** В данной статье анализируются основные факторы и динамика регионального соперничества между Турцией и Ираном в условиях гражданской войны в Сирии. Исследование основано на сравнительном анализе внешней политики обоих государств в отношении сирийского кризиса. Наряду с идеологическими аспектами политики Турции и Ирана рассматриваются их интересы в рамках реалполитики и геополитики. Анализируется место сирийского конфликта в системе регионального баланса сил, а также оцениваются последствия соперничества в сфере безопасности и политики. Результаты исследования способствуют пониманию перспективных направлений

**Kirish.** Turkiya va Eron o'rtasidagi mintaqaviy ustunlik uchun raqobat chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lib, u Usmonlilar va Safaviylar davriga borib taqaladi. Tarixiy nuqtai nazardan, mazkur davrda "Turkiya" tushunchasi Usmonli imperiyasini, "Eron" esa Safaviylar davlatini anglatgan. Keskin (2009: 46) ta'kidlaganidek, hukmdor sulolalarining etnik jihatdan turkiy kelib chiqishga mansub bo'lishiga qaramay, Usmonlilar va Safaviylar Yaqin Sharq mintaqasida uzoq vaqt davomida o'zaro raqib va dushman sifatida faoliyat yuritgan. Ushbu qarama-qarshilikning asosiy sababi ikki davlatning turli diniy-mazhabiy identitetlarga tayangan holda siyosat yuritishi, ya'ni Usmonlilarning sunniylik, Safaviylarning esa shialik an'analarga asoslanishi bilan izohlanadi. Shu bois, mazkur davr munosabatlari asosan diniy va mazhabiy to'qnashuvlar bilan tavsiflanadi.

Safaviylar sulolasining tanazzuli va Eron hududlarining Qojarlar sulolasi hokimiyati ostida qayta birlashuvi natijasida XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkiya–Eron munosabatlarida nisbatan barqaror va ijobiy bosqich kuzatila boshlandi (Aras 2006: 62). Ushbu davrda ikki davlat o'rtasidagi keskinlik ma'lum darajada pasayib, diplomatik aloqalar izchil tus oldi.

Birinchi jahon urushidan keyingi davrda Turkiya ham, Eron ham chuqur siyosiy transformatsiya jarayonini boshdan kechirdi. Usmonli imperiyasining parchalanishi natijasida Turkiya Respublikasi tashkil topgan bo'lsa, Eronda Qojarlar sulolasi o'rnini Pahlaviylar sulolasi egalladi. Har ikki mamlakatda millatchi va antiimperialistik qarashlarga ega bo'lgan harbiy-siyosiy elitalar hokimiyat tepasiga keldi. Turkiyada xalifalik bekor qilinib, respublika e'lon qilindi hamda dunyoviy davlat modeli joriy etildi. Eron esa monarxik boshqaruv shaklini saqlab qolgan holda, diniy ulamolarning siyosiy va ijtimoiy hayotdagi mavqeini mustahkamladi. Mazkur farqlarga qaramay, bu davrda Turkiya va Eron o'rtasidagi munosabatlar asosan pragmatik va ijobiy yo'nalishda rivojlandi (Çetinsaya 2003: 122–125).

Biroq 1970-yillarning o'rtalarida neft daromadlarining keskin oshishi Eron shohini mamlakatni mintaqaviy qudratli davlatga aylantirish va harbiy salohiyatni kengaytirishga undadi. Ushbu strategiya Turkiya tomonidan ehtiyotkorlik va xavotir bilan qabul qilindi (Calabrese 1998: 77). Shu bilan birga, 1979-yilgi Eron Islom inqilobi Turkiya–Eron munosabatlarida tub burilish yasadi. Dunyoviy davlat modeliga asoslangan Turkiya uchun qo'shni davlatda islomiy boshqaruv tizimining shakllanishi muhim geosiyosiy chaqiriq sifatida baholandi (Larrabee va boshq. 1998: 1).

Inqilobdan keyingi davrda Turkiya Eron Islom Respublikasining inqilobiy g'oyalarni boshqa mamlakatlarga eksport qilishga qaratilgan ritorikasini bevosita xavf sifatida qabul qildi (Altunışık 2010: 154). Shuningdek, Anqara Eronni jangari islomiy tashkilotlarni qo'llab-quvvatlashda aybladi (Aras 2003: 184; Günter 1998). Bundan tashqari, Eronning Kurdiston Ishchilar Partiyasi (PKK) bilan ehtimoliy aloqalari Turkiya tomonidan xavfsizlik tahdidi sifatida baholanib, mazkur omillar ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga olib keldi (McCurdy 2008: 89).

2000-yillarga kelib esa Turkiya–Eron munosabatlarida sezilarli darajada yaqinlashuv kuzatildi. Bu jarayonda Turkiyada Adolat va Taraqqiyot Partiyasining hokimiyatga kelishi bilan tashqi siyosat yondashuvlarining o'zgarishi hamda AQShning Iroqqa bostirib kirishi natijasida Turkiya va Eronning umumiy tahdidlar haqidagi tasavvurlarining yaqinlashuvi muhim rol o'ynadi (Altunışık 2010: 155). Mazkur davrda ikki davlat o'rtasida yuqori darajadagi rasmiy tashriflar va siyosiy muloqotlar sezilarli darajada faollashdi (Demiryol 2013: 114).

Biroq Turkiya–Eron munosabatlari nisbatan barqarorlashganiga qaramay, ular hanuz tarixiy raqobat va bir-biriga zid mintaqaviy ambitsiyalar bilan bog'liq muammolarni saqlab qolmoqda. Çağatay (2011) ushbu holatni Usmonlilar va Safaviylar davridan beri davom etib kelayotgan mintaqaviy hukmronlik uchun kurashning zamonaviy davrdagi ifodasi sifatida tavsiflaydi.

“Arab bahori” jarayonlari, xususan Suriya inqirozi, mazkur raqobat eng keskin namoyon bo'lgan maydonlardan biriga aylandi. 2011–2015 yillar oralig'ida Suriya mojarosi Turkiya va Eronning Yaqin Sharqdagi strategik manfaatlarining bevosita to'qnashuvini yaqqol namoyon etdi: Turkiya Bashar Asad rejimini hokimiyatdan chetlatishga intilgan bo'lsa, Eron uni saqlab qolish uchun keng ko'lamli siyosiy va harbiy resurslarni safarbar etdi.

Methods (Usullar). Mazkur tadqiqot qiyosiy tahlil (comparative analysis) va holat tahlili (case study) usullariga asoslanadi. Qiyosiy tahlil orqali Turkiya va Eronning mintaqaviy siyosiy strategiyalari solishtirildi, holat tahlili esa 2011–2024-yillar oralig'ida Suriya inqirozi doirasida yuz bergan asosiy siyosiy va harbiy jarayonlarni tizimli ravishda o'rganish imkonini berdi.

Turkiya Respublikasi tashkil topganidan buyon Suriya bilan murakkab va cheklangan munosabatlarni saqlab kelgan. Birinchi jahon urushidan so'ng Buyuk Britaniya va Fransiya tomonidan sun'iy ravishda shakllantirilgan Suriya davlati tarixiy-geografik hududlarning bo'linib ketishi natijasida revizionistik tashqi siyosat yuritdi. Bu holat Turkiya manfaatlariga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, Hatay viloyati bilan bog'liq chegara masalasi, Kamolizm va Baasizm o'rtasidagi mafkuraviy tafovutlar, shuningdek, kurd muammosi va transchegaraviy suv resurslari ikki davlat munosabatlarining asosiy ziddiyatli yo'nalishlarini tashkil etdi.

2004–2010-yillar oralig'ida Turkiya “Qo'shnilar bilan nol muammo” doktrinasi doirasida Suriya bilan munosabatlarni normallashtirishga intildi. Yuqori Darajadagi Strategik Hamkorlik

Kengashining tashkil etilishi va “Levant to‘rtligi” tashabbusi mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirishga qaratilgan muhim qadamlar sifatida baholandi.

Suriya inqirozining dastlabki bosqichida Turkiyaning asosiy maqsadlari insonparvarlik inqirozini boshqarish, Bashar Asad rejimini hokimiyatdan chetlatishga ko‘maklashish, muxolifatni qo‘llab-quvvatlash, DAISH tahdidini bartaraf etish hamda PYD/YPG tomonidan hududiy ustunlik o‘rnatilishining oldini olishdan iborat bo‘ldi. Dastlab yumshoq kuchga asoslangan ushbu siyosat 2016-yildan boshlab harbiy amaliyotlar orqali qattiq kuchga tayangan pragmatik yondashuvga o‘tdi. Shu bois, Turkiyaning Suriya siyosatini 2011–2016 va 2016-yildan hozirgi davrgacha bo‘lgan ikki bosqichga ajratish mumkin.

Eronda esa shialikning siyosiy ahamiyati 1979-yilgi Islom inqilobi bilan keskin kuchaydi. Oyatulloh Ruhulloh Humayniy tomonidan ilgari surilgan “Velayat-i faqih” nazariyasi diniy va siyosiy hokimiyatni birlashtirdi hamda shialikni davlat boshqaruvi va rasmiy mafkuraning markaziy elementi sifatida mustahkamladi. Natijada shia ruhoniylari siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida yetakchi mavqega ega bo‘ldi.

Eron tashqi siyosati inqilobdan keyingi davrda “Islom–Islom” yondashuvidan boshlab asta-sekin “Eron–Eron” modeliga evolyutsiya qildi. Bu jarayon shia identiteti va fors millatchiligiga tayangan tashqi siyosiy diskursning kuchayishiga olib keldi. Shu doirada Eron o‘zini shia dunyosining yetakchi aktori sifatida namoyon etib, “Shia hiloli” konsepsiyasi orqali mintaqaviy ta’sirini kengaytirishga intildi.

Ataman qayd etganidek, Eron Islom inqilobidan buyon ikki yo‘nalishli tashqi siyosat strategiyasini amalga oshirib kelmoqda: panislomchilik va pan-shialik. Dastlab inqilobiy g‘oyalarni musulmon davlatlariga eksport qilishga qaratilgan panislom yondashuv ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, “Arab bahori” jarayonlaridan so‘ng shia identitetini markazga qo‘ygan pan-shialik strategiyasi yetakchi ahamiyat kasb eta boshladi. Ushbu strategiya doirasida Eron Iroq, Suriya, Yaman va Livanda siyosiy tashayyu jarayonlarini chuqurlashtirdi, boshqa mintaqaviy davlatlarda esa ijtimoiy-diniy ta’sirini kengaytirishga intildi.

2011-yilda boshlangan Suriya inqirozi jarayonida Eron va Hizbulloh Bashar Asad rejimini saqlab qolish maqsadida keng ko‘lamli siyosiy, moliyaviy va harbiy yordam ko‘rsatdi. Shia militsiyalarining safarbar etilishi va keyinchalik Rossiyaning mojaroga jalb qilinishi Asad rejimining maydondagi barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi omil bo‘ldi. Natijada Eron Suriya orqali mintaqadagi strategik ta’sirini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi.

**Natijalar.** 2010-yil dekabr oyida Tunisda boshlangan va “Arab bahori” nomi bilan tanilgan xalq qo‘zg‘olonlari Yaqin Sharqning siyosiy tuzilmasini tubdan o‘zgartirib, xususan Turkiya tashqi siyosatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Dastlab demokratik transformatsiya sifatida baholangan

ushbu jarayon natijasida Misr, Liviya va Suriya kabi davlatlarda siyosiy beqarorlik kuchaydi hamda mintaqada harbiy to'ntarishlar va uzoq davom etgan fuqarolik urushlari yuzaga keldi.

2011-yil mart oyida Arab bahori Suriyaga yoyildi. Bashar Asad rejimi hokimiyatda qolgan bo'lsa-da, namoyishchilarga nisbatan qo'llanilgan zo'ravonlik keng ko'lamli fuqarolar urushini boshlab berdi. Ushbu jarayon "Suriya inqirozi" sifatida shakllanib, Turkiya tashqi siyosatida muhim burilish yasadi. Natijada, 2000-yillarda ustuvor bo'lgan yumshoq kuchga asoslangan yondashuv asta-sekin qattiq kuchga tayangan siyosat bilan almashdi.

Dastlab Turkiya Suriya bilan yaqin munosabatlardan kelib chiqib, Asad rejimini islohotlarga undashga harakat qildi. Biroq 2011-yilda olib borilgan diplomatik sa'y-harakatlar samara bermagach, Anqara Suriya muxolifatini qo'llab-quvvatlash va rejim o'zgarishini maqsad qilgan siyosatni qabul qildi. 2012-yildan boshlab Ozod Suriya Armiyasining shakllanishi va qurollantirilishiga ko'maklashildi, Turkiya harbiy samolyotining urib tushirilishi esa qattiq kuch siyosatining rasmiy boshlanishiga turtki bo'ldi.

2016-yilda boshlangan "Furot qalqoni" operatsiyasi Turkiyaning Suriya siyosatida yangi bosqichni belgiladi. Keyinchalik amalga oshirilgan "Zaytun novdasi" va "Tinchlik bulog'i" operatsiyalari Turkiyaning xavfsizlik, terrorizmga qarshi kurash va chegaraviy tahdidlarni bartaraf etishga qaratilgan strategiyasini mustahkamladi. Shuningdek, "Panja-Qilich" operatsiyasi Anqaraning Eronning mintaqadagi ta'sirini cheklashga qaratilgan siyosatini ham aks ettirdi.

Suriya fuqarolar urushi davrida Eron-Suriya munosabatlari sezilarli darajada mustahkamlandi. Tehron uchun Asad rejimining ehtimoliy qulashi Livandagi Hizbulloh bilan strategik aloqalarni zaiflashtirishi mumkin bo'lgan xavf sifatida baholandi. Shu bois Eron inqiroz boshidanoq Asad rejimini siyosiy, moliyaviy va harbiy jihatdan qo'llab-quvvatladi. 2012-yildan boshlab "Quddus kuchlari", Hizbulloh hamda "Fatimiyun" va "Zaynabiyun" kabi shia qurolli guruhlarining safarbar etilishi Asad rejimining maydondagi barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynadi.

Garchi Eronning Suriya siyosati ko'pincha shialik omili bilan izohlansa-da, ushbu yondashuv uni to'liq tushuntirish uchun yetarli emas. Aksincha, Eronning mojarodagi ishtiroki realpolitik manfaatlarga asoslangan ko'p qatlamli strategiyani aks ettiradi. Shialik omili bu jarayonda asosiy harakatlantiruvchi kuch emas, balki siyosiy legitimatsiya va safarbarlik vositasi sifatida namoyon bo'ldi.

Eronning Suriyadagi ishtiroki mintaqadagi sunniy raqiblar, xususan Saudiya Arabistoni va Fors ko'rfazi davlatlari bilan geosiyosiy raqobat, shuningdek AQSh va Isroilga qarshi uzoq muddatli strategiya bilan bevosita bog'liqdir. Suriya Tehron uchun Hizbulloh bilan aloqani ta'minlovchi strategik yo'lak bo'lib, Asad rejimining saqlanib qolishi Eronning mintaqaviy ta'siri va milliy xavfsizlik arxitekturasining muhim tarkibiy qismi sifatida baholandi. Shu bois Eronning

Asad rejimiga ko'rsatgan yordami mafkuraviy sadoqatdan ko'ra ko'proq uzoq muddatli strategik manfaatlar bilan belgilanganini ko'rish mumkin.

Discussion (Muhokama). Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, tashqi aktorlarning faol ishtiroki Suriya inqirozini chuqurlashtirib, mamlakatning suvereniteti va hududiy yaxlitligini sezilarli darajada zaiflashtirdi. R. Hinnebusch ta'kidlaganidek, ichki siyosiy inqiroz tashqi aralashuv bilan uyg'unlashganda mojaro yanada murakkablashadi va uzoq davom etadi (Hinnebusch, 2012). Shu ma'noda, Turkiya va Eronning Suriya siyosati qisqa muddatli xavfsizlik va strategik yutuqlarni ta'minlagan bo'lsa-da, uzoq muddatda mintaqaviy beqarorlikni mustahkamlovchi omilga aylandi.

Suriya inqirozining dastlabki bosqichida Turkiya diplomatik yo'l bilan mojaroni hal etishga intildi. Tashqi ishlar vaziri Ahmet Dovuto'g'luning 2011-yilda Damashqqa qilgan tashrifi Asad rejimini islohotlarga undashga qaratilgan edi. Biroq rejimning tinch aholiga nisbatan kuchayib borayotgan zo'ravonlik siyosatini tanlashi Turkiya–Suriya munosabatlarining tezda yomonlashuviga olib keldi. Natijada, 2011-yil oxiriga kelib Anqara Suriya muxolifatini qo'llab-quvvatlash yo'liga o'tdi va Suriya Milliy Kengashini Suriya xalqining vakili sifatida tan oldi.

Turkiya prezident Rajab Toyib Erdo'g'on Assadsiz Suriya kelajagini ochiq qo'llab-quvvatlab, rejimning uzoq muddat saqlanib qolmasligini ta'kidladilar. Shu jarayon fonida Turkiya 2011-yil oktyabr oyida “ochiq eshiklar” siyosatini e'lon qilib, suriyalik qochqinlarga “vaqtinchalik himoya” maqomini taqdim etdi. 2014-yilga kelib, Turkiyada yuz minglab suriyalik qochqinlar joylashtirilgani Anqaraning inqirozga insonparvarlik yondashuvini namoyon etdi (Kirişci, 2014).

Eronning Suriyadagi ishtiroki esa faqat harbiy yoki geosiyosiy omillar bilan cheklanmay, ideologik va legitimatsion diskurslarga ham tayandi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, Suriya Eron uchun “Qarshilik o'qi”ning markaziy bo'g'ini bo'lib, Asad rejimining barqarorligi Tehronning mintaqaviy ta'sirini saqlab qolishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi (Goodarzi, 2013; Eisenstadt & Knights, 2017). Shu sababli Eronning Suriyadagi siyosati qisqa muddatli taktika emas, balki uzoq muddatli strategik va normativ maqsadlarga asoslangan edi.

Eronning harbiy aralashuvi Inqilobiy Gvardiya va Hizbulloh orqali amalga oshirilib, bu jarayon Asad rejimini qurolli jihatdan qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda, mintaqadagi shia ittifoqchilarining xavfsizligini ta'minlashga ham xizmat qildi (Phillips, 2016). Ayniqsa, 2013–2015-yillarda Qusayr va Aleppodagi harbiy amaliyotlar rejimning jang maydonidagi barqarorligini mustahkamladi. Biroq mazkur harbiy strategiya mintaqada Turkiya va Saudiya Arabistoni kabi davlatlar bilan raqobat va keskinliklarni kuchaytirdi.

Umuman olganda, Eronning Suriyadagi siyosati shia tarmoqlarini kengaytirish va mintaqaviy geostrategik pozitsiyasini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, bu yondashuv Eronning G'arbiy Osiyodagi ta'sirini kuchaytirdi (Snyder, 2018). Shu bilan birga, Eronning mintaqadagi

ta'sir doirasining kengayishi raqobatni kuchaytiruvchi omilga aylanib, Yaqin Sharqda uzoq muddatli beqarorlik xavfini yanada oshirdi.

2025-yildan keyingi davrda Suriya siyosiy rejimining ag'darilishi ehtimoli mamlakatdagi ichki fragmentatsiya, tashqi aktorlar o'rtasidagi raqobat hamda iqtisodiy-institutsional zaifliklar bilan bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda. Bunday ssenariy amalga oshgan taqdirda, Suriya hududi mintaqaviy kuchlar o'rtasidagi ta'sir zonalariga yanada ko'proq bo'linish xavfi bilan yuzma-yuz keladi. Mazkur jarayonda Turkiya shimoliy Suriya orqali xavfsizlik va chegaraviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan pragmatik yondashuvini kuchaytirishi kutiladi. Shu bilan birga, Eron Asad rejimidan keyingi siyosiy bo'shliq sharoitida o'zining mavjud harbiy va ideologik tarmoqlari orqali ta'sirini saqlab qolishga intilishi ehtimoldan xoli emas. Rejim almashuvi Eron uchun "Qarshilik o'qi"ning uzilishi xavfini yuzaga keltirsa-da, Tehron moslashuvchan strategiyalar orqali yangi siyosiy konfiguratsiyaga integratsiyalashishga urinishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, rejimdan keyingi Suriya Turkiya–Eron raqobatining yangi, yanada murakkab bosqichiga aylanishi ehtimoli yuqori bo'lib, bu jarayon mintaqaviy barqarorlik istiqbollarini yanada noaniq holatga keltiradi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Suriya inqirozi Turkiya va Eron o'rtasidagi mintaqaviy raqobatning eng keskin namoyon bo'lgan maydoniga aylandi va bu raqobat urushdan keyingi siyosiy jarayonlarni ham belgilab bermoqda. Baas rejimining ag'darilishi Suriyada chuqur institutsional bo'shliqni yuzaga keltirib, mamlakatni tashqi aktorlar raqobati markaziga aylantirdi. Natijada, Turkiya va Eron o'rtasidagi qarama-qarshilik mafkuraviy yoki mazhabiy omillardan ko'ra, xavfsizlik, ta'sir zonalar va geosiyosiy manfaatlar asosida shakllandi. Rejimdan keyingi davrda Turkiya Suriyaning shimolida milliy xavfsizlik, chegaraviy barqarorlik va kurd masalasi bilan bog'liq tahdidlarni jilovlashga qaratilgan pragmatik siyosatini kuchaytirdi. Eron esa Asad rejimi qulaganiga qaramay, harbiy va ideologik tarmoqlar orqali o'z ta'sirini saqlab qolishga va "qarshilik o'qi"ning uzluksizligini ta'minlashga intildi.

Natijada, Baas rejimidan keyingi Suriya Turkiya–Eron raqobatining yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu bosqichda raqobatning markazida siyosiy bo'shliqni xavfsizlik tuzilmalari, mahalliy ittifoqchilar va institutlar orqali kim nazorat ostiga olishi masalasi turibdi. Rossiya, AQSh va Fors ko'rfazi davlatlarining harbiy, diplomatik va moliyaviy vositalar orqali bilvosita ishtiroki bu raqobatni ko'p qatlamli va murakkab jarayonga aylantirmoqda. Umuman olganda, Suriya tajribasi Turkiya va Eron o'rtasidagi munosabatlar ideologik qarama-qarshilik bilan cheklanmasdan, mintaqaviy kuchlar muvozanati, xavfsizlik manfaatlar va realpolitik hisob-kitoblar asosida shakllanayotganini ko'rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Altunışık, M. B. (2010). Turkey–Iran relations: Between rivalry and cooperation. *Middle Eastern Studies*, 46(1), 151–165.
2. Aras, B. (2003). Turkish foreign policy and the Middle East. *Journal of International Affairs*, 57(1), 183–196.
3. Aras, B. (2006). Turkey and the Middle East: Frontiers of the new geographic imagination. *Australian Journal of International Affairs*, 60(4), 519–534.
4. Calabrese, J. (1998). Turkey and Iran: Limits of a stable relationship. *British Journal of Middle Eastern Studies*, 25(1), 75–94.
5. Çağatay, N. (2011). Turkey–Iran relations in the Middle East: The oldest power struggle. In *Regional power politics in the Middle East* (pp. 45–68). Istanbul: Istanbul Bilgi University Press.
6. Çetinsaya, G. (2003). *The Ottoman administration of Iraq, 1890–1908*. London: Routledge.
7. Demiryol, T. (2013). Turkish–Iranian relations: Cooperation and competition in the Middle East. *Insight Turkey*, 15(3), 111–128.
8. Karnap, B., & Çağla, A. (2022). The role of Shiism in Iran's foreign policy after the Islamic Revolution. *Journal of Iranian Studies*, 55(3), 631–650.
9. <https://doi.org/10.1080/00210862.2021.1998734>
10. Keskin, F. (2009). Ottoman–Safavid rivalry and sectarian identity. *Middle Eastern Studies*, 45(1), 41–58.
11. Azimov, H. Y. (2021). Emergence of new threats to Turkey's national security during the Syrian crisis: "Euphrates Shield" movement. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 3(01), 42-48.
12. Yakubovich, A. H. (2019). The emergence of the Syrian crisis and the impact of the external forces on it. *Bulletin Social-Economic and Humanitarian Research*, (4 (6)), 92-97.
13. Larrabee, F. S., Lesser, I. O., & Zanini, M. (1998). *Turkey's new geopolitics*. Santa Monica, CA: RAND Corporation.
14. McCurdy, D. (2008). Iran and Turkey: A complex relationship. *Middle East Policy*, 15(1), 85–97.
15. Özcan, M. (2017). Turkey's Syria policy: A critical assessment. *Uluslararası İlişkiler*, 14(55), 255–276.
16. Stein, A., Yılmaz, S., & Yıldırım, B. (2012). Turkey and Iran in the Syrian crisis. *Survival*, 54(6), 143–162.
17. R.Hinnebusch Syria: from 'authoritarian upgrading' to revolution? *International Affairs*, Volume 88, Issue 1, January 2012, Pages 95-113)

18. Syrian refugees and Turkey's challenges: Going beyond hospitality Kemal Kirişci Brookings, 2014.
19. Syria and Iran: Diplomatic alliance and power politics in the Middle East Jubin M Goodarzi Bloomsbury Publishing, (2009)
20. Eisenstadt, M., & Knights, M. (2017). Iran's regional influence strategies. International Institute for Strategic Studies
21. Phillips, C. (2016). The battle for Syria: International rivalry in the new Middle East. Yale University Press.
22. Snyder, G. (2018). Iran's strategic interests and legacy in the Syrian conflict. Middle East Policy, 25(1), 45–58.
23. Habibullokhon, A., & Mokhichekhra, S. (2025). The Sectarian Factor In Iran's Regional Foreign Policy In The Post-Islamic Revolution Period. Library of Frontline Social Sciences and History Journal, 5(09), 24-28.